

30-laboratoriya mashg`uloti.

Mavzu: Bug`doydoshlar yoki qo`ng`irboshdoshlar oilasi

Mashg`ulotning maqsadi: Bug`doydoshlar yoki qo`ng`irboshdoshlar oilalari vakillarining tuzilishi bilan tanishish.

Nazariy ma`lumot:

Qabila: Poales – Bug`doynamolar

Oila: Poaceae – Bug`doydoshlar

Tur: *Aegilops cylindrica* – ettibo`g`im, qasmaldoq, *Avena fatua* – g`ovak suli, qorako`za, *Triticum durum* – kuzgi bug`doy, *Zea mays* – makkajo`xori, *Bromus danthoniae* – danton yaltirboshi, *B. tectorum* – cho`chqayol yaltirbosh, *Echinochloa crus-galli* – shamak kurmak, qora kurmak, *Sorghum halepense* – jonson g`umayi, *Setaria viridis* – yashil qo`noq, *Phragmites australis* – oddiy qamish, *Arundo donax* –qamishsimon savag`ich.

Bug`doydoshlar oilasining yer yuzida 900 turkum va 11,000 tur mavjud bo`lib, O`zbekistonda 80 turkumga mansub 216 turi uchraydi. Oila vakillari bir, ikki va ko`p yillik o`t o`simliklaridan iborat bo`lib, ba`zan daraxtsimon turlar ham uchraydi. Ularning ildizi popuk yoki ildizpoyali bo`ladi. Poyasi silindrsimon, shoxlanmagan va bo`g`imlarga bo`lingan, bo`yi esa 2 sm dan 200 sm gacha yetadi. Barglari oddiy, bandsiz, navbat bilan joylashgan, qalami va nashtarsimon shaklda bo`ladi. Barglarning pastki qismi poyani o`rab turadigan silindrsimon uzun qin va qalami yaproqdan iborat bo`lib, qin va yaproq o`rtasida yupqa pardasimon kichik tilcha mavjud.

Gullari mayda, rangsiz bo`lib, gulqo`rg`onsiz, bir, ikki yoki ko`p gulli boshqochalarda joylashadi. Boshqochalar birlashib, murakkab boshqoq, murakkab shingil va so`tani hosil qiladi. Boshqoqcha tagida ostki va ustki tangachalar joylashgan. Gulqo`rg`oni mavjud emas, uning o`rnida gul tangachalari bo`ladi. Gulning ichida, gul tangachalari orasida mayin va kichkina parda joylashadi. Bu parda o`zgargan gulqo`rg`on bo`lib, lodikula deb ataladi. Lodikulaning biologik ahamiyati shundaki, u gul ochilishiga yordam beradi.

Gulchangchilari 3 ta yoki 6 ta, ba`zan 2 ta bo`ladi. Urug`chisi esa 2-3 ta mevabargning qo`shilishidan hosil bo`ladi. Gulning tugunchasi ustki, bir uyali va bir urug`kurtakli. Mevasi don shaklida bo`ladi.

E. Poales

Poaceae (=Graminae) -
grass family



Kerakli jihozlar: bug‘doy, suli, ettibo‘g‘im, yaltirbosh, kurmak, g‘umay, qo‘noq, qamish, savag‘ich turkumining gerbariy namunalari yoki tirik obyekt, o‘simliklar aniqlagichi, lupa, pinset, preparoval nina, turlarning rasmlari (ko‘rgazma yoki slaydlar).

Ishni bajarish tartibi

1. **Oila vakillarining tuzilishini o‘rganish:** Tanlab olingan o‘simliklarning g‘erbarlari yoki tirik ob‘ektlari asosida o‘rganiladi. Dastlab, tanlab olingan o‘simlikning morfologik tuzilishi tahlil qilinadi.
2. **Morfologik xususiyatlarni o‘rganish:** O‘simlikning ildiz tizimi, poyasining o‘ziga xos morfologik xususiyatlari, barglarining joylashishi, tomirlanishi, qinining ochiq yoki yopiqligiga, va tilchaning shakliga e‘tibor qaratiladi.
3. **To‘pgul tipini aniqlash:** Har bir turning to‘pgul tipini aniqlang. To‘pguldan alohida gul ajratib olinib, ostki va ustki gul qipidlari topiladi.
4. **Qipidlarni tahlil qilish:** Qipidlar shakli, tomirlarining soni, qiltikli yoki qiltiqsizligi, va qipidlarning joylashish tartibi ahamiyatga ega. Boshqning ustki va ostki tangachabarglarining farqini aniqlang.

5. **Gulning tuzilishini o'rganish:** Gul pardasining tuzilishi, guldagi changchilar va urug'chilar soni, ularning tuzilishi o'rganiladi. Gul tuzilishi formulasini yozing va gul diagrammasini chizing.
6. **Mevani aniqlash:** Meva turini aniqlang va uning rasmini chizing. Oilaning bir nechta turlarini aniqlagich yordamida aniqlang va daftarga qayd eting.
7. **Turlarni tavsiflash:** Turlarning xo'jalik ahamiyatini tavsiflab bering.

